



№4/2026

ANDIJON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

ADPI
Ilmiy xabarnomasi

MAHMUDXO'JA BEHBUDIYNING JADIDCHILIK G'OYALARI VA MA'RIFIY ISLOHOTCHILIK FAOLIYATINING ASOSIY YO'NALISHLARI

Erkinboyeva Zilola Fayzillo qizi

Andijon davlat pedagogika insituti

Annotatsiya.

Mazkur maqolada Mahmudxo'ja Behbudiyning jadidchilik harakatidagi ma'rifiy-islohotchilik faoliyati tarixiy manbalar va ilmiy tadqiqotlar asosida tahlil qilinadi. Uning ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, milliy matbuotni rivojlantirish, teatr san'atini shakllantirish va siyosiy ongini uyg'otish borasidagi xizmatlari yoritiladi. Behbudiyning faoliyati Turkiston ijtimoiy tafakkurining yangilanishida muhim omil bo'lganligi ilmiy asoslanadi.

Kalit so'zlar:

jadidchilik, ma'rifatparvarlik, islohot, yangi usul maktabi, milliy uyg'onish, teatr, matbuot.

Аннотация.

В статье анализируется просветительская и реформаторская деятельность Махмудходжи Бехбуди в движении джадидизма на основе исторических источников и научных исследований. Освещаются его заслуги в модернизации системы образования, развитии национальной прессы, формировании театрального искусства и пробуждении общественного сознания. Подчеркивается значимость его деятельности в процессе национального возрождения Туркестана.

Ключевые слова:

джадидизм, просветительство, реформа, новая школа, национальное возрождение, театр, пресса.

Abstract.

This article analyzes the educational and reformist activities of Mahmudkhoja Behbudi within the Jadid movement based on historical sources and scholarly research. It highlights his contributions to the modernization of education, development of national press, establishment of theater, and awakening of socio-political consciousness. The study substantiates the importance of his role in the national revival of Turkestan.

Keywords:

Jadidism, enlightenment, reform, new-method school, national revival, theater, press.

XX asr boshlarida Turkiston o'lkasi chorizmning mustamlakachilik siyosati va ichki ma'naviy turg'unlik iskanjasida qolgan edi. Bunday murakkab sharoitda millatni jaholat botqog'idan olib chiqish, uning dunyoqarashini o'zgartirish va milliy uyg'onish poydevorini qurish vazifasini jadidchilik harakati o'z zimmasiga oldi. Bu harakatning g'oyaviy yo'l boshchisi va "Turkiston jadidlarining otasi" deb e'tirof etilgan Mahmudxo'ja Behbudiy (1875–1919) o'zining ko'p qirrali islohotchilik faoliyati bilan tarix sahnasiga chiqdi. Hozirgi murakkab globallashuv davrida milliy ma'rifat va ta'lim tizimini rivojlantirishda jadidchilik tajribasini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Behbudiyning qarashlari zamonaviy ta'lim va jamiyat taraqqiyoti uchun ham dolzarbdir. Behbudiyning jadidchilik g'oyalari va uning ma'rifiy islohotchilik faoliyatining asosiy yo'nalishlarini aniqlash va ilmiy asosda tahlil qilish va keng ommaga yetkazish muhim ahamiyat kasb etadi. Behbudiy, millat taraqqiyotining kalitini ta'lim tizimini tubdan isloh qilishda ko'rdi. Shu maqsadda Turkiston xalqining milliy ongini uyg'otish uchun yangi ta'lim tizimini joriy qilish ya'ni, dunyoviy fanlarni o'qitishni va dunyo ilm fan yutuqlaridan habardor qilish uchun 1903-yilda Behbudiy Samarqandda o'zining ilk "Yangi usul" maktabini ochdi. Bu maktabda u "usuli savtiya" (tovush usuli) metodikasini qo'llagan

holda o'qitish tizimini joriy qildi. "Bizning maktablarimizda bolalar 4-5 yil o'qib ham xat-savodi chiqmas edi. Yangi usulda esa 40-50 kunda bola ham o'qiydi, ham yozadi" [1, B. 45]. Darhaqiqat Yangi usul maktablarida yoshlarning savodi tez chiqdi, ularga diniy ta'lim bilan bir qatorda kimyo, geografiya, tibbiyot, nujum va shu kabi dunyoviy fanlar chuqur o'rgatilgan. Uning "Muntaxabi jug'rofiyai umumiy" (1906) kitobi Turkistondagi ilk zamonaviy geografiya darsliklaridan biri bo'ldi.

Behbudiy davriy matbuotni xalqni birlashtiruvchi eng kuchli qurol deb bildi. Murakkab davr bo'lishiga qaramay jadidlar tomonidan milliy matbuotga asos solindi. Davriy matbuotda asosan millat dardi, xalqni ma'rifatli qilish, haq huquq va erkinliklarini ta'minlash masalalari yoritildi.

Behbudiy tillarni o'rganishni zamon talabi deb bildi. "Bizga turkiy, forsiy, arabiy va rusiy tillar lozim. Turkiy — milliy tilimiz, forsiy — adabiy merosimiz, arabiy — dinimiz tili, rusiy esa dunyo fani va siyosati bilan aloqa bog'lash uchun zarurdir" [4, B. 72]. Behbudiyning ushbu ogitlari zamirida millatning ma'naviy va dunyoviy komillikka erishish tamoyili yotadi. Uning nazarida, to'rt tilni bilish — to'rt xil imkoniyat eshigini ochish demak edi. Jadidlar sardori millat o'zligini anglamog'i uchun ona tilini, ma'naviy ildizlaridan uzilmaslik uchun forsiy va arabiy tillarni, taraqqiyotga erishish uchun esa rus va boshqa xorijiy tillarni o'zlashtirishni hayotiy zarurat deb bildi.

Behbudiy san'atni "Xalq dorilfununi" deb atadi. "Teatr — bu shunchaki o'yin emas, u jamiyatning dardini ko'rsatadigan ko'zgidir. Padarkush — bizning fojiamizdir" [5, B. 89]. Ushbu asar Turkistonda milliy dramaturgiyaga asos soldi va xalqni ma'rifat sari yetakladi.

Behbudiyning islohotchilik konsepsiyasi faqatgina ma'rifat tarqatish bilan cheklanib qolmay, balki millatning iqtisodiy mustaqilligiga va siyosiy huquqlarini anglashiga qaratilgan yaxlit tizim edi. U millatni "tiriltirish" uchun avvalo uning "cho'ntagi" va "ongi" ozod bo'lishi kerakligini uqtirdi.

Behbudiy Turkiston iqtisodiyotining o'sha davrdagi achinarli holatini, ya'ni o'lkaning faqatgina Rossiya imperiyasi uchun arzon xomashyo bazasi bo'lib qolayotganini chuqur tahlil qildi. U "Oyna" jurnalidagi maqolalarida Turkiston paxtasini chetga juda arzon narxda xomashyo sifatida chiqarib yuborishni va tayyor mahsulotni (gazlama, kiyim) chetdan o'n barobar qimmatga sotib olishni milliy fojea deb atadi. "Biz o'z paxtamizni o'zimiz qayta ishlashimiz, o'zimizda ip va mato fabrikalarini qurishimiz shart. Zero, xomashyo sotgan millat qul bo'lur, tayyor mahsulot ishlab chiqargan millat esa boy bo'lur" [4, B. 102]. U milliy boylarni sarmoyasini faqat to'y-hashamlarga yoki imoratlarga emas, balki "Aksiyadorlik jamiyatlari" tuzishga, zamonaviy banklar ochishga va yoshlarni Yevropaga muhandislik va iqtisod yo'nalishida o'qishga yuborishga chaqirdi. Uning fikricha, iqtisodiy qudrat bo'lmagan joyda ma'rifat ham uzoq yashay olmaydi. U hunarmandlarni birlashishga va kichik ustaxonalarni zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlangan fabrikalarga aylantirishni islohotning bosh mezoni qilib belgiladi [9, B. 34]. Behbudiyning siyosiy qarashlari uning huquqiy bilimlariga asoslangan edi. U muftiy sifatida ham diniy, ham dunyoviy qonunlarni yaxshi bilgan holda, xalqni o'z siyosiy huquqlari uchun kurashishga undadi. U muftiy sifatida shariat hukmlarini chuqur tahlil qilib, ularning taraqqiyot va ilm-fanga zid emasligini isbotlab berdi. Shu bilan birga, u xalqaro huquq normalari va konstitutsiyaviy tuzum asoslari bilan tanish bo'lgani bois, Turkiston uchun muxtoriyat modelini ishlab chiqishda yetakchilik qildi. "Haq berilmas, olinur! O'z haqini tanimagan va uni talab qilmagan xalq boshqalarga poymol bo'lishga mahkumdur" [1, B. 156].

U siyosiy ongni uyg'otishni quyidagi uchta bosqichda ko'rdi:

Huquqiy savodxonlik: Behbudiy shahar dumlari (mahalliy boshqaruv) saylovlarida mahalliy aholining ishtirok etishi, o'z vakillarini saylashi va davlat boshqaruvida ovozga ega bo'lishi kerakligini tushuntirdi. U "Samarqand" gazetasida saylov qonun-qoidalarini xalqqa sodda tilda sharhlab berdi.

Muxtoriyat va milliy davlatchilik: 1917-yilgi voqealardan so'ng Behbudiy Turkiston muxtoriyati (avtonomiyasi) g'oyasining asosiy mafkurachilaridan biriga aylandi. U faqat ma'rifatli xalqqina o'z davlatini boshqara olishini isbotladi.

U turli diniy va ijtimoiy guruhlarini bir g'oya — millat manfaati atrofida birlashishga chaqirdi. Uning "Ittifoq kerak!" degan chorlovi o'sha davrdagi siyosiy tarqoqlikka qarshi eng kuchli qurol edi [7, B. 201]. Jadidchilik harakati doirasida Behbudiyning yondashuvi boshqa jadid namoyandalardan tizimlili bilan ajralib turadi. U ta'lim, matbuot va san'atni bir-biri bilan uzviy bog'lab, kompleks islohot modelini yaratgan. Behbudiyning iqtisodiy va siyosiy qarashlari Turkiston jadidchilik harakatini shunchaki ma'rifiy oqimdan milliy-ozodlik harakatiga aylantirdi. Uning bu boradagi dadil fikrlari bugungi kunning iqtisodiy suverenitet va huquqiy demokratik davlat qurish g'oyalari bilan to'liq hamohangdir. Uning ma'rifiy islohotchilik faoliyatining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat: ta'lim tizimini yangilash, matbuotni rivojlantirish, teatr orqali tarbiya berish, milliy uyg'onishni targ'ib qilish.

Mahmudxo'ja Behbudiyning ma'rifiy-islohotchilik faoliyati shunchaki tarixiy hodisa emas, balki milliy yuksalishning hayotbaxsh dasturidir. Uning maktab, matbuot, teatr, iqtisodiyot va siyosat sohasidagi qarashlari yaxlit bir tizimni tashkil etadi. Bu tizimning markazida esa erkin va ma'rifatli inson turadi.

Behbudiy merosini o'rganish bugungi kunda Uchinchi Renessans poydevorini qurayotgan O'zbekiston yoshlari uchun nafaqat ilmiy vazifa, balki vatanparvarlik burchidir. Uning g'oyalari bizni hamisha ilmga, birlikka va milliy g'ururni asrashga chorlayveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Behbudiy M. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Ma'naviyat, 2006. – 280 b.
2. Qosimov B. Milliy uyg'onish: jasorat, ma'rifat, fidoiylik. – Toshkent: Ma'naviyat, 2002. – 400 b.
3. Ziyoev H. Turkistonda jadidchilik harakati va uning maqsadi. – Toshkent: Universitet, 1993.
4. Alimova D.A. Jadidchilik fenomeni: mohiyati va tarixiy ahamiyati. – Toshkent: Akademnashr, 2017.
5. Karimov N. Mahmudxo'ja Behbudiy: Hayoti va ijodiy faoliyati. – Toshkent: Fan, 2011.
6. Khalid Adeeb. The Politics of Muslim Cultural Reform: Jadidism in Central Asia. – University of California Press, 1998.
7. Sirojiddinov Sh. O'zbek adabiyotida milliy uyg'onish davri va Behbudiy merosi. – Toshkent, 2015.
8. Behbudiy M. Qasdi safar (Sayohat xotiralari). – Toshkent: Sharq, 2004.
9. O'zbekiston tarixi (1900–1917 yillar). 3-kitob. – Toshkent: Sharq, 2005.

Эгамназарова З.К.

Совершенствование коммуникативной компетенции на занятиях по русскому языку в вузе (в нефилологических направлениях) посредством использования современных сатирических текстов 74 77

To'xtamurodov Azizbek Azimjon o'g'li

Talabalar xizmatlarini tashkil etishda registrator ofisining ergonomik boshqaruv modeli 78 81

Novshadbekova Dilnura Zafarbekj qizi

Tarbiya fanini integrativ yondashuv asosida o'qitish orqali talabalarning kreativ va intellektual kompetensiyalarini rivojlantirish 82 87

Ergasheva Muhayyoxon G'anijonovna

Oliy ta'lim tizimida talabalar o'quv faoliyatini pedagogik improvizatsiya asosida rivojlantirishning determinantlari va strategiyalari 88 91

Muqumjonova (Sodiqova) Moxinur Farxodjon qizi

Bo'lajak texnologiya o'qituvchilarida kreativ kompetensiyani rivojlantirishda zamonaviy pedagogik yondashuvlar 92 94

Kodirov Muxammadxusanbek Abdizohid o'g'li

Oliy ta'lim muassasalarida basketbol mashg'ulotlarini tashkil etishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish 95 100

Shomurotov Asqar Abdullayevich

Talabalarning jismoniy tarbiya jarayonida aylanma mashg'ulotlardan foydalanishning samarali usullari 101 105

Ismonov Xurshidbek Baxtiyorovich, Toshpulatova Maftuna Sherali qizi

Geomertik shakllar asosida Natyurmort kompozitsiyasini qurish 106 109

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLAR

Fozilov Botirjon Zakirovich

Global ta'lim migratsiyasi: ijtimoiy-falsafiy tahlil va strategik rivojlanish tendensiyalari 110 116

Abduraximova Shaxnoza Raxmonjonovna

O'quv faoliyatida stressni yengishning samarali psixologik texnikalari 117 122

Erkinboyeva Zilola Fayzillo qizi

Mahmudxo'ja behbudiyning jadidchilik g'oyalari va ma'rifiy islohotchilik faoliyatining asosiy yo'nalishlari 123 125

Eshonqulova Jumagul Abdumajidovna

Ijtimoiy tarmoqlarda ayol qiyofasi masalasi orqali talabalarning ma'naviy-axloqiy tafakkurini rivojlantirish imkoniyatlari 126 129

Mamajonov Ulug'bek Maxammattolibovich

Musiqqa san'ati va inson qalbining uyg'unligi 130 133

Ahmadjonova Shahnozaxon Yارقinovna

Talabalar o'rtasida huquqbuzarlikni oldini olish 134 136

Keldiyeva Shaxnozaxon Shuxratovna

Bo'lajak tarixchi talabalarni tayyorlashda reflektiv yondashuv: jadid maktablarining ilmiy-metodik merosidan foydalanish imkoniyatlari 137 140

